

## OILADAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI.

**Saidova Nargiza Ismatulla qizi.**

Nizomiy nomidagi TDPU "Amaliy psixalogiya" kafedra o‘qituvchisi

**Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi.**

Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va psixalogiya" fakulteti talabasi

***Kalit so‘zlar:** oila, psixalogiya, muammo, turmush, nikoh, oila, psixologi, jamiyat, psixologik muammolar, sabablar, yosh oila, oiladagi ziddiyat, majburiy nikoh, er va ayol.*

Jamiyatda muammolar bolganidek oilada ham katta va kichik iqtisodiy va psixologik muammolar paydo bolib turadi. Bu muammolarni kichik sabablaridan biri bu erta turmush qurish bolishi mumkin. Avvalari yoshlarni erta turmush qurishi odatiy holdek qabul qilingan, ammo bu sanab o‘tgan muammolarimizni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bundan 90-100 yillar yillar oldingi o‘smirlar va hozirgi kundagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o‘rtasidagi tafovutlarni solishtirib o‘tamiz. So‘nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko‘ra ularning jinsiy, fiziologik balog‘atga yetishi 2—3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog‘atga yetish davri 15—16 yoshga to‘g‘ri kelgan, hozir esa bu holat o‘rtacha 12—13 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Ilgarigi tengdoshlaringiz 15—16 yoshlarida oilaviy yetishgan. Hozirda yoshlarimiz turmush qurish Yoshi 18, 19 yosh qilib belgilangan. Oiladagi psixologik muammolarni asl sababi erta turmush deyishimizni sababi, hali oila nimaligi, oilaviy munosabatlar qanaqa bolishini tushunmagan yosh oila bir biri

bilan kelishishga, birbirini tushunishga qiynalishi tabiiy. Vaqtida qurilgan turmushda ham psixologik muammolar bolishi mumkin, bular: er va hotin bir birini tushunmasligi, birbiridan zerikish va bir biriga qiziqishi yoqolishi, etiborsiz bolib qolish xolatlari ham bolishi mumkin. Bu muammolar vaqtida bartaraf etilmasa muammo chuqurlashib bu esa oilani ajrimga olib kelishi mumkin. bunday holatlarda psixologga murojat qilish ham muammoga yechim bolishi mumkin.

Psixolog oilada baxtli bo'lish sirlarini er xotinga o'rgatishi lozim.

Oilada baxtning sirlari nimada; birinchisi bu asosan hurmat. Chunki hurmat bo'lgan joyda qo'pollik bo'lmaydi. Ayol harqanday vaziyatda erkani hurmatini saqlashi va shu jumladan erining oldida ozining xurmatini saqlashi lozim. Ammo bazi ayollar bu hurmatni ozining kuchliligida deb bilishidai va men qanchalik kuchlim bo'lsam erim meni shunchalik hurmat qiladi deb o'ylashadi ammo bu notogri. Erkakdan o'zini ustunligini isbotlab hamma masuliyatni bo'yniga olgan ayol emas, erkakni hurmatini joyiga qoyib, uni qirol qilib o'zi esa dono vazir o'rnida o'tirgan ayol kuchlidir. Baxtli bo'lish siridan biri bu minnatdor bo'lishdir: er xotin ko'pincha nimadir ololmayotganimizdan, nmadir bizga berisholmayotganidan bazan xafa bo'lamiz. Baxtli bo'lish uchun esa aksincha nima ololmayotganingdan emas, nmadr olayotganingizdan minnaatdor bo'lishni o'rganish, nima yetishmayotganidan emas nima bor jufti unga nima berayabdi shundan minnatdor bo'lishni va unga rahmat aytishni bilish lozim.

Keyingisi esa bu–kelishib olish. Oiladagi ayolo va er har doim muammolarga diqqatini qaratishadi, kim haq kim nohaqligi bilan ovora bo'lib qolamiz. Lekin bunday vaziyatda er-xotin utirib kelishib, murosaga kelishi mumkin. Yana bir baxt siri esa olishdan avval berishni bilishi lozim. Ko'pincha ayol kishi nimadir kerak bo'lsa uni talab qilishdan nariga o'tmaydi. Muammo ham shunda, inson nima olmoqchi bo'lsa o'shani avval berishi lozim. Oiladagi ayol va erkak munosabatlarini biznes hamkorlikga oxshatshish mumkin. Masalan ularni ikki korxonona bo'lsa biri ishlab chiqaruvchi, biri esa manashu ishlab chiqarilgan molni realizatsiya qilishga ehtiyojhi bor, ular o'zaro shartnoma qiladilar. Agar bu ikki korxonona shartnomaga amal qilsa

xamkorlik uzoq muddat davom etadi. Bazan shu xamkorliklarda turli nizolar, kelishmovchiliklar bo‘lib turadi, shunda aqlli korxonalar rahbarlari utiradilar va o‘zaro kelishib olishadi, noroziliklarni ochiq oydin gapirib kelishib yechim topadilar va shundagina shartnomalar uzoq muddat davom etadi va ishonch bo‘ladi. Agar xuddi shu modelni oila munosabatlarda qo‘llasa qanday bolardi. Ayol va erkak o‘zigagi barcha narsalarni, etibor mehr, vaqtlarini faqat bir birlari biln almashishsa. Nimadandir norozi bo‘lishsa buni ochiq oydin gapradilar kelishib yechim topadilar. Agar shunday bo‘lsa bunday oilalar baxtli bo‘lardilar va uzoq muddat bu davom etgan bo‘lardi. Oilaga yordamni har xil soha egalari beradilar. Bularga seksologlarni, xuquqshunoslarni, psixologlarni, psixiatrlarni, narkologlarni, pedagoglarni va sh.k. kiritamiz. Hozirgi vaqtda oila va oilaviy munosabatlar haqida bilim berish muhim vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Bunday vazifani oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish markazlari va boshqa shu sohaga kiruvchi yo‘nalishlar bajarishi lozim. oiwa, [30.12.2022 20:28]

Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma’lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan qanday muloqotda bo‘lish malakalarini, oilada har bir shaxsning ierarxik mavqeiga ko‘ra o‘z huquq va vazifalarini aniqlab olishiga imkon beradi. Moddiy ta’minot, yuqori madaniy saviya esa oilada shaxsning shaxsga qo‘ygan talabini yanada kuchaytiradi. Oila a’zolarining o‘zaro muloqotda bo‘lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa ko‘pgina yoshlar uchun ota-ona oilasi shaxsiy oilasiga namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi. Oiladagi psixologik va iqtisodiy muammolarning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri erta turmush qurish deya olamiz. chunki oiladagi er va xotin bir birini tushunmasligi, oilagi kichik muammolar, yetishmovchiliklarga ko‘nika olmasligi va shu kabi kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu kabi muammolar kelib chiqishini va erta turmushni oldini olish uchun qat’iy nikoh yoshi qonunan belgilab qo‘yildi. Oilaviy psixologik va iqtisodiy muammolarni kelib chiqishi faqatgina kichik yoshga bog‘liq bo‘lavermaydi, uning turli sabablari mavjud. Masalan majburiy nikoh yoki xoxish ila qurilgan nikoh bolsa ham bir-birini tushinaolmaslik anglashni xoxlamaslik, bir biridan zerikish, qiziqishning qolmasligi va shu kabi. Oila

qurish insonning ehtiyojlarini qondirish vositasi ham bo'lishi mumkin. Masalan yqinlikka bo'lgan ehtiyoj, ota-onaning nevara korishga, nasil qoldirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida. Oila qurilgandan so'ng yangi ehtiyojlar va maqsadlar paydo bola boshlaydi.

Oilaga yordamni har xil soha egalari beradilar. Bularga seksologlarni, xuquqshunoslarni, psixologlarni, psixiatrlarni, narkologlarni, pedagoglarni va sh.k. kiritamiz. Hozirgi vaqtda oila va oilaviy munosabatlar haqida bilim berish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bunday vazifani oilaga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari va boshqa shu sohaga kiruvchi yo'nalishlar bajarishi lozim. Bu jarayonda psixologik maslaxat berish o'z oldidagi masalalarni hal qilishda katta qiyinchiliklarga to'g'ri kelayapti. Psixologik xizmatni bir xil tushunib bo'lmaydi. Uning ikkita umumiy bo'lgan ta'rifi mavjud. Ularda psixologik xizmatni vazifalari va muammolarni yechish yo'llari ko'rsatilgan.

**Xulosa:** hozrda oilalarda psixologik muammolar kop yuzaga kelmoqda va shundayin muammolar borki ularni faqatgina psixolog yordsami, ko'magi bilangina yechim topish mumkin. Va psixolog ozi oila uchun kerakmi degan savol tuzilishi mumkin. Bu savolga harkimning fikri harxil. kimdir kerak deysi, kimdir esa yoq oilaviy muammolarni kimdir hal qilib berishini g'alati hisoblaydi. Menimcha esa psixolog harbir oila uchun kerak deb xisoblayman. Chunki harxil oilalar mavjud: erta tuemush qurgan yoki kechikkan, vaqtida bo'lsa ham kelisholmayotgan, bir birini tushunolmayotgan. Bunday muammolarni hal etishda psixologning aralashuvi muammoga yechim topilishiga sabab bo'lishi mumkin. Psixolog nima qiladi. Psixolog oiladagi erkak va ayolga oila qanaqa bo'lishi, birbiriga qanday muomila qilishi, oilada qanday qilib baxt tasavvurini rivojlantirish mumkinligini o'rgatadi va buni amalda qo'llaydi, oilani tinch va baxtli bo'lishiga yordam beradi va harakat qiladi. Fikrimcha ikki shaxs turmush qurayotib, qonunan nikohdan o'tishyotgan vaqtda ularni psixolog bkorigiga borishi qatiy belgilab qo'yilsa bu maqsadga muvofiiq bolgan bo'lardi deb o'yliman. Bunda psixolog birinchidan yosh oilaga oila haqida tushunchalar berishi, oilada qanday shaxs bo'lish kerak, uning shaxsiy vazifalari va ikkinchidan esa oilada

yuzaga keladiga kichkiina muammolarni yaxshi xal etish,masuliyat his qilish va shu kabi tushunchalarni berardi. Balki shunda oilada kelib chiqadigan psixologik muammolarni,janjallarni va ajrashishlarni ham oldini olish, oilada baxt tushunchasini rivojlantirishi ham mumkin bo'lgan bo'lardi. Demak xulosa shuki oilalarda paydo boladigan muammolarga yechim topish va oilada baxt tasavvurini rivojlantirishda psixologning roli katta.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Oila psixologiyasi; Darslik Pedogogika oliygohlari talabalari uchun. /V.M.Karimova.*
- 2.Oila psixologiyasi;o'quv qo'llanma./D.Abdullaeva,R.Yorqulov,N.Atabaeva-Toshkent;Tafakkur Bo'stoni.,2015.*
- 3.Oila psixologiyasining asoslari. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi./minikar.ru*
- 4.Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari./D.Araapbayeva. N.Norqulova.*
- 5.Oila psixologiyasi; Akad.litsey va kasb-hunar killejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma./G'.B.Shoumarov.*